



## O'ZBEKISTON XATTOTLIK MAKTABLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS AN'ANALARI

Allayarov Mahmudjon Mavlonjon o'g'li

Oriental universiteti 4-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekiston hududida shakllangan xattotlik maktablarining tarixiy rivojlanishi, o'ziga xos xususiyatlari va madaniy merosi o'rganildi. Islom madaniyatining muhim tarkibiy qismi bo'lgan xattotlik san'ati Markaziy Osiyoda IX asrdan boshlab keng tarqalgan va turli maktablar shakllanishiga olib keldi. Temuriylar, Shayboniylar va keyingi sulolalar davrida Hirot, Buxoro, Samarqand, Qo'qon va Xorazm xattotlik maktablari vujudga keldi. Har bir maktabning o'ziga xos uslublari, texnikasi va estetik me'yorlari mavjud bo'ldi. Maqolada xattotlik san'atining O'zbekiston madaniy tarixidagi o'rni, me'morchilik, qo'lyozma kitoblar va bezak san'atiga ta'siri tahlil qilindi. Nazariy ma'lumotlar asosida xattotlik maktablarining shakllanish bosqichlari, rivojlanish omillari va madaniy ahamiyati yoritildi.

**Kalit so'zlar:** xattotlik san'ati, maktab, an'ana, islom madaniyati, arab xati, nasta'liq, Temuriylar, Hirot maktabi, Buxoro maktabi, madaniy meros.

## CALLIGRAPHY SCHOOLS OF UZBEKISTAN AND THEIR UNIQUE TRADITIONS

**Abstract:** The article examines the historical development, distinctive features, and cultural heritage of calligraphy schools formed in Uzbekistan. Calligraphy, an essential component of Islamic culture, has been widely practiced in Central Asia since the 9th century, leading to the formation of various schools. During the Timurid, Shaybanid, and subsequent dynasties, calligraphy schools emerged in Herat, Bukhara, Samarkand, Kokand, and Khorezm. Each school developed its own unique styles, techniques, and aesthetic standards. The article analyzes the role of calligraphy in Uzbekistan's cultural history and its influence on architecture, manuscript books, and decorative arts. Based on theoretical data, the formation stages, development factors, and cultural significance of calligraphy schools are highlighted.

**Keywords:** calligraphy art, school, tradition, Islamic culture, Arabic script, nastaliq, Timurids, Herat school, Bukhara school, cultural heritage.

### KIRISH

Xattotlik san'ati Sharq madaniyatining eng qadimiy va noyob ko'rinishlaridan biri sanaladi. Arab yozuvi islom dinining tarqalishi bilan birga Markaziy Osiyoga kirib keldi va qisqa vaqt ichida madaniy hayotning ajralmas qismiga aylandi. Yozuvning go'zalligi va estetik qiymati xattotlikni oddiy hunar darajasidan yuqori san'at cho'qqisiga ko'tardi. O'zbekiston hududida shakllangan xattotlik maktablari o'zining noyob uslublari, badiiy me'yorlari va ijodiy yondashuvlari bilan ajralib turdi.



Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda milliy madaniy merosni o'rganish, saqlash va avlodlarga yetkazish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Xattotlik san'ati nafaqat kitobat va yozuv bilan, balki me'morchilik, bezak san'ati va ma'naviy qadriyatlar bilan ham chambarchas bog'liq. O'zbekiston xattotlik maktablarining o'ziga xos an'alarini o'rganish milliy madaniyatning boy tarixini anglashga yordam beradi.

Maqolaning maqsadi O'zbekiston xattotlik maktablarining tarixiy shakllanish jarayonini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini va madaniy merosini nazariy jihatdan o'rganishdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: xattotlik san'atining Markaziy Osiyodagi paydo bo'lish va rivojlanish tarixini tahlil qilish, asosiy xattotlik maktablarining geografik va tarixiy joylashuvini aniqlash, har bir maktabning o'ziga xos uslubiy xususiyatlarini ko'rib chiqish, xattotlik san'atining madaniy ahamiyatini baholash.

### ASOSIY QISM

Xattotlik san'atining O'zbekistonda paydo bo'lishi va dastlabki rivojlanishi

Arab yozuvining Markaziy Osiyoga kirib kelishi VII-VIII asrlarga to'g'ri keldi. Arablar istilosidan so'ng islom dini bilan birga arab alifbosi ham rasmiy yozuv sifatida qabul qilindi. Dastlab arab yozuvi davlat hujjatlari, diniy matnlar va adabiy asarlarni ko'chirishda qo'llana boshlandi. Vaqt o'tishi bilan yozuvning go'zalligi va estetik qiymati e'tiborga olinib, xattotlik mustaqil san'at turiga aylandi.

IX-X asrlarda O'rta Osiyoda, xususan, Xorazmda madaniy va ilmiy hayot yuqori darajaga ko'tarildi. Bu davr yutug'i o'tmishdan qolgan bilim va tajribalarning arab madaniyati bilan uyg'unlashuvidan kelib chiqdi. Kitob ko'chirish va yozuv san'ati maxsus kasbga aylandi, xattotlar jamiyatda yuqori hurmatga sazovor bo'ldi. Xattotlik nafaqat diniy, balki dunyoviy asarlarni ko'chirishda ham muhim o'rin tutdi.

Xattotlik san'atining rivojlanishi turli xat uslublarining vujudga kelishiga olib keldi. Kufiy, nasx, suls, muhaqqaq, riq'a, shikasta kabi yozuv turlari Markaziy Osiyoda keng tarqaldi. Har bir xat turi o'zining xususiyatlariga ega bo'lib, ma'lum maqsadlar uchun ishlatildi. Kufiy xati qadimiy yozuv turi sifatida me'moriy inshootlarda, nasx xati Qur'on nusxalarini ko'chirishda, nasta'liq esa adabiy asarlarda qo'llanildi.

Temuriylar davrida xattotlik san'ati

XIV-XV asrlarda Temuriylar sulolasi hukmronligi davrida xattotlik san'ati eng yuqori cho'qqiga ko'tarildi. Bu davr O'zbekiston madaniy tarixida Uyg'onish davri sifatida tan olindi. Amir Temur va uning avlodlari san'atga katta e'tibor qaratdilar, xattotlarni himoya qildilar va ijodiy muhit yaratdilar. Samarqandda, Hirotida va boshqa shaharlar da ulkan kutubxonalar tashkil etildi, qo'lyozma kitoblar yaratish keng miqyosda rivojlandi.

Temuriylar davrida Hirot madaniy markaz sifatida alohida o'rin tutdi. XV asrning ikkinchi yarmida Hirotida saroy kutubxonasi boshida Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Sulton Ali Mashhadiy, Mavlono Yoriy kabi buyuk ijodkorlar faoliyat ko'rsatdi. Hirot xattotlik maktabi o'zining yuqori mahorati va noyob uslubi bilan butun islom olamida shuhrat qozondi. Bu maktab nasta'liq xatini takomillashtirishda muhim rol o'ynadi.

Sulton Ali Mashhadiy (1437-1520) Hirot xattotlik maktabining eng yirik vakili bo'lib, "Xattotlar sultoni" va "Kotiblar qiblisi" unvonlariga sazovor bo'ldi. U nasta'liq xatini san'at asari darajasiga ko'tardi va bu uslubni keng tarqatdi. Sulton Ali Mashhadiy Alisher



Navoiyning ko'plab asarlarini ko'chirdi, uning ijodiy faoliyati temuriylar davrining madaniy yutuqlarini aks ettirdi. Uning shogirdlari va izdoshlari bu an'analarni davom ettirdilar.

Mir Ali Tabriziy nasta'liq xatining asoschisi sifatida e'tirof etildi. U XIV asrda bu xat turini yaratdi va uning qonun-qoidalarini bayon etgan risola yozdi. Nasta'liq xati o'zining oqimlili, go'zalligi va o'qish qulayligi bilan ajralib turdi. Bu xat badiiy asarlar, she'riy to'plamlar va tarixiy kitoblarni ko'chirishda asosiy uslub bo'ldi. Temuriylar davri xattotlari nasta'liqni takomillashtirishda katta hissa qo'shdilar.

Buxoro xattotlik maktabi va uning an'analari

XVI asrda Shayboniylar sultonati tashkil topgach, madaniy hayot Buxoroda yangi bosqichga ko'tarildi. Hirotidan ko'plab xattotlar, rassomlar va madaniyat arboblari Buxoroga ko'chib keldi. Bu jarayon Buxoroda mustaqil xattotlik maktabining shakllanishiga olib keldi. Buxoro xattotlik maktabi o'zining noyob uslubi, didaktik yondashuvlari va ijodiy an'analari bilan ajralib turdi.

XVI-XVII asrlarda Buxoroda yashab ijod qilgan xattotlar o'ziga xos maktab yaratdilar. Bu maktabda nasta'liq xati yetakchi o'rin tutdi, ammo nasx, suls va boshqa xat turlari ham qo'llanildi. Buxoro xattotlari kitob ko'chirish bilan birga madrasalarda ta'lim berishdi, shogirdlar tayyorladilar. XVIII-XIX asrlarda Buxoroda 100 dan ortiq xattotlar faoliyat ko'rsatdi, ularning nomlari tarixiy manbalarda saqlanib qoldi.

Mashhur mutafakkir Ahmad Donish ham xattotlik bilan shug'ullandi. U ko'chirgan qo'lyozmalarga o'zi bezak berib, sarlavhalar va miniatyuralar ishladi. Ahmad Donishning xattotlik faoliyati uning ko'p qirrali iste'dodini ko'rsatdi. Buxoro xattotlari qo'lyozma asarlar yaratishda yuqori mahorat namoyish etdilar, ularning ijodiy merosi bugungi kunda ham qadrlandi.

Buxoro maktabining o'ziga xos xususiyatlaridan biri xattotlarning diniy va dunyoviy bilimlarni uyg'unlashtirishi bo'ldi. Ular nafaqat yozuv san'atini, balki adabiyot, tarix va falsafani ham puxta bildilar. Bu keng qamrovli bilim xattotlarga matnlarni chuqur anglashga va badiiy jihatdan ifodali asarlar yaratishga yordam berdi. Buxoro xattotlik maktabi O'zbekiston madaniy merosida muhim iz qoldirdi.

Samarqand, Qo'qon va Xorazm xattotlik maktablari

Samarqand qadim zamonlardan beri madaniyat va ilm-fan markazi bo'lib keldi. Bu shahar temuriylar davrida alohida gulladi, xattotlik san'ati ham yuqori darajaga ko'tarildi. Samarqandda ko'plab qo'lyozma kitoblar yaratildi, me'moriy inshootlarga noyob kitobalar bitildi. Samarqand xattotlik maktabi o'zining katta xatlari va me'moriy yozuvlardagi mahorati bilan tanildi.

XVIII-XIX asrlarda Farg'ona vodiysida, xususan Qo'qonda madaniy hayot yangi bosqichga kirdi. Qo'qon xonligi davrida xattotlik san'ati keng rivoj topdi va o'ziga xos maktab shakllandi. Qo'qon xattotlari nasta'liq va shikasta xatlarini qo'llashda mahorat ko'rsatdilar. Muhammad Sharif Dabir boshliq ko'plab xattotlar Qo'qon, Toshkent, Andijon shaharlarida faoliyat yuritdilar.

Qo'qon xattotlik maktabining o'ziga xos tomoni shunda ediki, bu yerda badiiy asarlarni ko'chirishda nasta'liq bilan birga shikasta xati ham keng qo'llanildi. Xattotlarning ko'pchiligi shoirlik, tarixchilik bilan ham shug'ullandilar yoki miniatyura san'atini bildilar.



Bu ko'p qirralilik xattotlarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirdi. Qo'qon xattotlari nasx, shikasta, nasta'liq kabi yozuv usullarini puxta egalladilar.

Xorazmda xattotlik san'ati XVIII asr boshlaridan mustaqil maktab sifatida shakllandi. XIX asrda Muhammad Rahim I va Muhammad Rahim II zamonida Xorazmda xattotlik va kitobat ishlari keng taraqqiy etdi. Xorazm xattotlari o'zlarining yozuv uslubi va bezak me'yorlari bilan ajralib turdilar. Bu maktab nasta'liq xatiga e'tibor qaratdi va me'moriy inshootlarga kitobalar bitishda yuqori mahorat namoyish etdi.

Xattotlik san'atining madaniy ahamiyati va an'analari

Xattotlik san'ati O'zbekiston madaniy hayotida ko'p qirrali rol o'ynadi. Birinchidan, bu san'at diniy matnlar, xususan Qur'oni Karimni nusxa ko'chirishda muhim o'rin tutdi. Go'zal yozilgan diniy kitoblar tabarruk sanaldi va avlodlarga meros qoldirildi. Xattotlar Qur'on ko'chirishda alohida mas'uliyat va e'tiqod bilan ishladilar, bu jarayon ma'naviy tajribaga aylandi.

Ikkinchidan, xattotlik me'morchilikda keng qo'llanildi. Masjidlar, madrasalar, maqbaralar va boshqa diniy-jamoat binolarining devorlariga Qur'on oyatlari, hadislar va hikmatli so'zlar yozildi. Bu kitobalar nafaqat ma'naviy ma'no, balki badiiy bezak funksiyasini ham bajardi. Samarqanddagi Registon majmuasi, Toshkentdagi Hazrati Imom majmuasi kabi obidalar xattotlik san'atining ajoyib namunalari.

Uchinchidan, adabiy asarlar va tarixiy kitoblarni ko'chirishda xattotlik muhim ahamiyat kasb etdi. Alisher Navoiy, Abdurrahmon Jomiy, Bobur va boshqa mumtoz adiblarning asarlari xattotlar tomonidan go'zal qo'lyozmalarda ko'chirildi. Bu qo'lyozmalar nafaqat matnlarni saqladi, balki ularni san'at asariga aylantirdi. Ko'plab qo'lyozmalar miniatyuralar, bezaklar va naqshlar bilan to'ldirildi.

Xattotlik an'analari avloddan avlodga o'tdi. Ustozlar o'z shogirdlariga nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki estetik me'yorlar va ma'naviy qadriyatlarni ham o'rgatdilar. Xattot bo'lish uchun uzoq yillik mashg'ulot, sabr-toqat va doimiy takomillashuv talab etildi. Xattotlar jamiyatda yuqori mavqega ega bo'ldilar va ularning ijodiy merosi hurmat bilan qaralgan. Toshkentda ham xattotlik san'ati XIX asr oxirida yangi bosqichga kirdi. Bu davrda toshbosma texnologiyasi kirib keldi, ammo xattotlar o'z san'atlarini davom ettirdilar. Toshkent xattotlik maktabi o'zining uslubi va an'analari bilan ajralib turdi. Xattotlar nafaqat qo'lyozma kitoblar yaratdilar, balki matbaa uchun namunalarni ham tayyorladilar.

Zamonaviy davrda xattotlik san'atining saqlanishi

XX-XXI asrlarda xattotlik san'ati yangi sharoitlarda o'z rivojini davom ettirdi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy madaniy merosni qayta tiklash va rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Xattotlik san'ati ham bu jarayonning muhim qismi bo'ldi. Bugungi kunda O'zbekistonda xattotlik Toshkent Sharqshunoslik instituti, Toshkent Islom universiteti, Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida o'rgatiladi.

Zamonaviy xattotlar an'anaviy uslublarni o'rgangan holda, yangi ijodiy yondashuvlarni ham qo'llaydilar. Ular nafaqat diniy va adabiy matnlarni ko'chirishda, balki zamonaviy dizayn, grafika va badiiy loyihalarda ham xattotlik elementlaridan foydalanadilar.



Bu san'atning qadimiy an'analari zamonaviy madaniyat bilan uyg'unlashib, yangi shakllar kasb etdi.

Xalqaro miqyosda O'zbekiston xattotlari yuqori e'tirofga sazovor bo'lmoqdalar. Habibulloh Solih Qur'oni Karimning asl nusxasidan bir necha marta ko'chirgan va xalqaro xattotlar bellashuvlarida yuqori o'rinlarni egallagan xattot hisoblanadi. Uning Usmon Qur'onini ko'chirishdagi mahorati va xizmatlari butun islom olamida e'tirof etildi. Zamonaviy xattotlar milliy an'analarni saqlab qolish va ulkani dunyoga tanitishda muhim rol o'ynaydilar.

O'zbekiston xattotlik maktablarining o'ziga xos an'analari bugungi kunda ham davom ettirilmoqda. Xattotlik san'ati nafaqat o'tmishning merosi, balki kelajak uchun qimmatli madaniy kapitaldir. Bu san'at yoshlarga sabr-toqat, diqqat, estetik his va ma'naviy qiymatlarni o'rgatishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Xattotlik an'alarining saqlanishi milliy madaniyatning barqarorligini ta'minlaydi.

#### XULOSA

O'zbekiston xattotlik maktablari boy tarixga ega bo'lib, har biri o'zining noyob xususiyatlari va ijodiy an'analari bilan ajralib turdi. IX asrdan boshlab arab yozuvining kirib kelishi va islom madaniyatining keng tarqalishi xattotlik san'atining rivojlanishiga olib keldi. Temuriylar davrida Hirot xattotlik maktabi eng yuqori cho'qqiga ko'tarildi va nasta'liq xatini takomillashtirishda hal qiluvchi rol o'ynadi. Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Tabriziy kabi buyuk xattotlar bu davrning madaniy gullashini ta'minladilar.

Keyingi asrlarda Buxoro, Samarqand, Qo'qon va Xorazm xattotlik maktablari shakllandi. Har bir maktab o'z hududining tarixiy, madaniy va estetik xususiyatlarini aks ettirdi. Buxoro maktabi o'zining ilmiy yondashuvi va ta'lim tizimi bilan, Qo'qon maktabi nasta'liq va shikasta xatlarini qo'llashdagi mahorati bilan ajralib turdi. Xorazm maktabi esa me'moriy yozuvlarda yuqori san'atkorlikni namoyish etdi.

Xattotlik san'ati nafaqat kitob ko'chirish, balki me'morchilik, bezak san'ati va ma'naviy qadriyatlarni ifodalashda ham muhim o'rin tutdi. Bu san'at avloddan avlodga o'tuvchi an'alar tizimiga aylandi va O'zbekiston madaniy identifikatsiyasining muhim qismiga aylandi. Zamonaviy davrda xattotlik an'alarining saqlanishi va rivojlantirilishi milliy madaniyatning mustahkamligini ta'minlaydi.

O'zbekiston xattotlik maktablari dunyoviy xattotlik san'atining ajralmas qismi sifatida tan olindi. Ularning merosi nafaqat mahalliy, balki xalqaro ahamiyatga ega. Bu maktablar tomonidan yaratilgan qo'lyozmalar, kitobalar va badiiy asarlar bugungi kunda ham o'rganiladi va qadrlandi. Xattotlik san'atini o'rganish, saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish muhim madaniy vazifa bo'lib qolmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. – Toshkent: Fan, 1971. – 168 b.
2. Hakimov M. Alisher Navoiyning asarlarini ko'chirgan xattotlar. – Toshkent: Fan, 1991. – 142 b.
3. Norqulov N. Temuriylar davri madaniyati tarixidan lavhalar. – Urganch: Xorazm, 1996. – 256 b.



4. Pugachenkova G.A. Temurning me'moriy merosi. – Toshkent: Sharq, 1996. – 312 b.
5. Ahrorov H.K. Xattotlik san'ati va arabcha yozuv turlari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004. – 178 b.
6. Kostigova G.I. "Traktat po kalligrafii" Sultan Ali Mashxedi. – Leningrad: Ermitaj, 1957. – 96 b.
7. Alisher Navoiy asarlariga ishlangan rasmlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1982. – 224 b.
8. Rajabova R., Sobirova S. Buxoro amirligida xattotlik san'ati va xattotlik maktabi namoyandalari // Modern Science and Research. – 2025. – №4(5). – B. 1287-1291.
9. Asrorov K.O. O'rta Osiyo xattotlik san'ati (IX-XVI asrlar) // O'zbekiston tarixi. – 2021. – №3. – B. 45-52.
10. Zamonov A., Rajabov Q. O'zbekiston tarixi: O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi uchun darslik. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 144 b.
11. Xondamir. Habib us-siyar. – TehrOH: Khayyam, 1954. – Jild 3. – 584 b.
12. Mirxond. Ravzat us-safo. – Tehran: Asatir, 1959. – Jild 6. – 672 b.
13. Said Kasimoglu. Xattotlikning islom madaniyatidagi o'rni va ahamiyati // Markaziy Osiyoda islom sivilizatsiyasi konferensiyasi materiallari. – Toshkent: IIAU, 2021. – B. 78-84.
14. Yalman S. The Art of the Timurid Book: Splendor and Sophistication. – New York: Metropolitan Museum of Art, 2015. – P. 112-128.
15. Blair S.S. Islamic Calligraphy. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006. – 712 p.